


NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI
(2022- yil yanvar-aprel oylari uchun dastlabki ma`lumot)

Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2022- yil yanvar-aprel oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 398,9 mln.AQSh dollarini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 124,8 % ni tashkil etdi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI
(yanvar-aprel, mln.AQSh dollari)

Ma`lumot uchun: Namangan viloyati tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSA da eksport hajmi 171,9 mln.AQSh dollariga (33,5 % ga ko'paydi) va import hajmi 227,0 mln.AQSh dollariga (19,0 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – 55,1 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

**NAMANGAN VILOYAT
BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR
(2022- yil yanvar-aprel, mln.AQSh dollari, ulushi, % da)**

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Xitoy Xalq Respublikasi	118,0	20,6	97,4	29,6
Rossiya Federatsiyasi	109,5	75,9	33,6	27,4
Turkiya	35,5	20,0	15,5	8,9
Qozog'iston	29,0	10,5	18,5	7,3
Qirg'iziston	25,3	21,3	4,0	6,3
Germaniya	10,2	2,4	7,8	2,6
Turkmaniston	7,2	2,4	4,8	1,8
Litva	6,8	0,2	6,6	1,7
Koreya Respublikasi	6,6	0,7	5,9	1,7
Polsha	5,8	3,2	2,6	1,5

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

Namangan viloyati, jahonning 67 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (29,6 %), Rossiya Federatsiyasida (27,4 %), Turkiyada (8,9 %), Qozog'istonda (7,3 %), Qirg'iz Respublikasida (6,3 %), Germaniya (2,6 %) va Turkmanistonda (2,0 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Qozog'iston va Qirg'iz Respublikalari bilan TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Qirg'iziston va Qozg'iston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Rossiya, Xitoy, Germaniya, Turkiya va Hindiston davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan ikta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Xitoy Xalq Respublikasi (118,0 mln.AQSh.dollari), Rossiya Federatsiyasi (109,5 mln.AQSh.dollari), shular jumlasidandir. Qolgan 18 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

**NAMANGAN VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN
TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-aprel, ming.AQSh.dollari)**

Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
Xitoy Xalq Respublikasi	54819,5	89557,8	117981,5
Eksport	10698,4	21206,8	20556,4
Import	44121,2	68351,0	97425,1
Saldo	-33422,8	-47144,2	-76868,8
Rossiya Federatsiyasi	65079,0	89670,4	109499,5
Eksport	38649,7	57938,2	75914,9
Import	26429,3	31732,2	33584,6
Saldo	12220,5	26206,0	42330,2
Turkiya	12594,3	26432,3	35469,0
Eksport	4202,5	7819,7	20014,4
Import	8391,8	18612,6	15454,6
Saldo	-4189,4	-10792,8	4559,8
Qozog'iston	21256,2	34680,2	29035,2
Eksport	9052,7	7632,2	10546,0



Import	12203,5	27048,0	18489,2
Saldo	-3150,8	-19415,7	-7943,1
Qirg'iziston Respublikasi	24681,3	17788,6	25299,1
Eksport	22964,9	16199,1	21312,1
Import	1716,4	1589,6	3987,0
Saldo	21248,5	14609,5	17325,1
Germaniya	6727,3	3695,0	10173,8
Eksport	1121,4	509,6	2400,5
Import	5605,9	3185,4	7773,3
Saldo	-4484,6	-2675,8	-5372,8
Turkmaniston	2355,0	2514,0	7206,3
Eksport	1256,6	817,6	2410,2
Import	1098,4	1696,4	4796,1
Saldo	158,2	-878,8	-2385,9
Litva	1040,9	778,2	6829,6
Eksport	19,8	175,0	190,5
Import	1021,1	603,2	6639,1
Saldo	-1001,2	-428,1	-6448,6
Koreya Respublikasi	5945,7	3127,7	6584,7
Eksport	77,8	22,9	692,7
Import	5867,9	3104,8	5892,0
Saldo	-5790,1	-3082,0	-5199,3
Polsha	2604,0	4579,3	5822,8
Eksport	1981,7	2774,8	3227,4
Import	622,3	1804,5	2595,4
Saldo	1359,3	970,3	632,0
Ukraina	2966,3	4928,5	5391,6
Eksport	2434,1	2773,7	2100,2
Import	532,3	2154,9	3291,4
Saldo	1901,8	618,8	-1191,2
Belarus	952,5	2721,2	5217,8

Eksport	783,4	706,0	703,0
Import	169,1	2015,3	4514,8
Saldo	614,4	-1309,3	-3811,8
Hindiston	2114,9	7879,7	4148,7
Eksport	226,8	551,1	266,6
Import	1888,1	7328,6	3882,1
Saldo	-1661,4	-6777,5	-3615,6
Tojikiston	2304,3	1447,1	3179,6
Eksport	2041,4	1145,2	1253,4
Import	262,9	301,9	1926,3
Saldo	1778,5	843,2	-672,9
Fransiya	1008,7	3220,1	2735,8
Eksport	-	-	-
Import	1008,7	3220,1	2735,8
Saldo	-1008,7	-3220,1	-2735,8
Eron Islom Respublikasi	1152,0	1048,6	2489,4
Eksport	214,6	-	577,1
Import	937,4	1048,6	1912,3
Saldo	-722,9	-1048,6	-1335,1
Italiya	1710,8	2019,6	2002,2
Eksport	456,6	537,1	552,7
Import	1254,1	1482,6	1449,5
Saldo	-797,5	-945,5	-896,9
Latviya	422,1	557,1	1803,1
Eksport	1,8	39,1	181,6
Import	420,3	518,0	1621,5
Saldo	-418,4	-478,8	-1439,9
Malayziya	3275,6	1861,8	1724,1
Eksport	-	-	-
Import	3275,6	1861,8	1724,1
Saldo	-3275,6	-1861,8	-1724,1

Azərbaydjon	227,8	194,2	1348,5
Eksport	227,8	194,2	940,8
Import	-	-	407,7
Saldo	227,8	194,2	533,1

Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2022- yil yanvar-aprel oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 46,9 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2021- yilga nisbatan ulushi 1,7 % ga kamaygan.

**NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA
MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar-aprel % va ulushi)**




Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2022- yil yanvar-aprel oylarida 2021- yilning shu davriga nisbatan ko'paydi (1,7 % ga) va jami TSA dagi ulushi 53,1 % ni tashkil etdi.

NAMANGAN VILOYATINING EKSPORTI (2022- yil yanvar-aprel)

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida viloyatning eksportyorlar soni 299 tani tashkil etib, ular tomonidan 171,9 mln.AQSh.dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2021- yilning mos davriga nisbatan 33,5 % ga ko'paydi tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 97,9 % ni tashkil etib, ular Sanoat tovarlari (59,0 %), Xar-xil tayyor mahsulotlar (22,0 %) va Oziq ovqat mahsulotlari (11,7 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

EKSPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)





MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-aprel)

XSST tarkibi	Mln.AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	171,9	115,9	56,0	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	20,1	10,2	9,9	11,7	8,8	17,7
Ichimliklar va tamaki	0,3	0,3	0,0	0,2	0,3	0,0
Oziq-ovqat bo'lmagan xom ashyo, yoqilg'idan tashqari	2,3	0,7	1,5	1,3	0,6	2,7
Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,8	0,8	0,0	0,5	0,7	0,1
Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar	3,1	3,1	0,0	1,8	2,6	0,1
Ishlab chiqarilgan mahsulotlar	101,5	61,8	39,6	59,0	53,4	70,8
Mashina va transport uskunolari	2,2	2,2	0,0	1,3	1,9	0,0
Har xil tayyor mahsulotlar	37,9	35,1	2,8	22,0	30,3	4,9
Xizmatlar	3,6	1,6	2,0	2,1	1,4	3,6

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda, keyingi o'rinlarda eksport

hajmi bo'yicha asosan yengil sanoat tovarlari, qora va rangli metallar, mashina va asbob-uskunalar va kimyo mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda.

**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR
VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar-aprel, % va ulushi,)




2022- yilning yanvar-aprel oyi yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 44,2 %), Qirg'iz Respublikasi (12,4 %), Xitoy Xalq Respublikasi (12,0 %), Turkiya (11,6 %), Qozog'iston (6,1 %), Polsha (1,9 %) va Turkmaniston (1,4 %) davlatlari

saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 89,6 foizni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni saqlab qolmoqda.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2021- yining mos davriga nisbatan 39 davlatdan 45 davlatga ko'paydi.

**NAMANGAN VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
(2022- yil yanvar-aprel, % da)**



**TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTIDAGI YIGIRMATA
YIRIK HAMKOR DAVLATLAR
(yanvar-aprel)**

Davlatlar	Ming.AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'zni	
	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.
Rossiya Federatsiyasi	57 938,2	75 914,9	149,9	131,0	1	1
Qirg'iz Respublikasi	16 199,1	21 312,1	70,5	131,6	3	2
Xitoy Xalq Respublikasi	21 206,8	20 556,4	198,2	96,9	2	3
Turkiya	7 819,7	20 014,4	186,1	255,9	4	4
Qozog'iston	7 632,2	10 546,0	84,3	138,2	5	5
Polsha	2 774,8	3 227,4	140,0	116,3	6	6
Turkmaniston	817,6	2 410,2	65,1	294,8	11	7
Germaniya	509,6	2 400,5	45,4	471,1	14	8
Ukraina	2 773,7	2 100,2	114,0	75,7	7	9
Tojikiston	1 145,2	1 253,4	56,1	109,4	10	10
Afg'oniston	1 697,5	1 109,8	178,9	65,4	9	11
Azerbadjon	194,2	940,8	85,3	484,4	17	12
Portugaliya	1 824,4	757,8	226,6	41,5	8	13
Birlashgan Arab Amirliklari (BAA)	5,4	752,6	1,7	13834,7	19	14
Belarus	706,0	703,0	90,1	99,6	12	15
Koreya Respublikasi	22,9	692,7	29,4	3031,3	18	16
Gruziya	247,2	608,3	76,6	246,1	16	17
Eron	-	577,1	-	100,0	20	18
Italiya	537,1	552,7	117,6	102,9	13	19
Belgiya	248,4	547,3	1747,6	220,3	15	20

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari va turli xil tayyor buyumlar kiradi.

Xizmatlar eksporti hajmi 3610,4 ming.AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 2,1 % ini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 158,3 % ga ko'payganligi kuzatildi.

TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 101,5 mln.AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 59,0 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 133,7 % ga o'sdi.


Viloyatning to'qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish borasidagi amaliy ishlari natijasida, viloyatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

NAMANGAN VILOYATINING IMPORTI (2022- yil yanvar-aprel)

2022- yil yanvar-aprel oyida import hajmi 227,0 mln.AQSh dollarini va 2021- yilning mos davriga nisbatan 119,0 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulushi, mashinalar va transport asbob-uskunalari (37,0 %), Sanoat mahsulotlari (21,5 %) hisobiga to'g'ri keldi.

IMPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)



- Oziq-ovqat va tirik hayvonlar
- Ichimliklar va tamaki
- Oziq-ovqat bo'lmagan xom ashyo, yoqilg'idan tashqari
- Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar
- Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar
- Sanoat mahsulotlari
- Mashina va transport uskunalari
- Har xil tayyor mahsulotlar

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 36,2 mln.AQSh dollariga ko'paydi va 227,0 mln.AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 0,8 ming.AQSh dollariga yetdi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-aprel)**



XSST tarkibi	Mln.AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	227,0	71,3	155,7	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	30,5	22,4	8,2	13,4	31,4	5,2
Ichimliklar va tamaki	11,0	8,8	2,3	4,8	12,3	1,4
Oziq-ovqat bo'lmagan xom ashyo, yoqilg'idan tashqari	8,8	8,6	0,2	3,9	12,1	0,1
Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar	7,5	5,8	1,8	3,3	8,1	1,1
Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar	29,9	6,5	23,4	13,2	9,1	15,0
Sanoat mahsulotlari	48,9	12,4	36,5	21,5	17,4	23,4
Mashina va transport uskunalari	83,9	5,5	78,4	37,0	7,7	50,4
Har xil tayyor mahsulotlar	6,5	1,4	5,1	2,9	2,0	3,3
Xizmatlar	0	0	0	0	0	0

Importning eng katta ulushi, jumladan, Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar mahsulotlar (31,4 %) Sanoat mahsulotlari (17,4 %) ni MDH mamlakatlariga to'g'ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush Mashina va transport uskunalari (50,4 %), Sanoat mahsulotlari (23,4 %) va hissasiga to'g'ri keladi.

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki,

2021- yilning mos davriga nisbatan Mashina va asbob-uskunalar 26,5 % Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importining ulushi 22,0 % ga oshdi, kimyo mahsulotlari va buyimlari importining ulushi 12,3 % ga oshdi, ga oshdi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR
VA XIZMATLAR IMPORTI
(yanvar-aprel, % va ulushi)**




Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlat-lar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 42,9 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini 14,8 % ortda qoldirgan holda, birinchi o'rinni egalladi.

**TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR
(yanvar-aprel)**

Davlatlar	Ming. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2021- y.	2022-y.	2021- y.	2022-y.	2021- y.	2022-y.
Xitoy Xalq Respublikasi	68351,0	97425,1	154,9	142,5	1	1
Rossiya Federatsiyasi	31732,2	33584,6	120,1	105,8	2	2
Qozog'iston	27048,0	18489,2	221,6	68,4	3	3
Turkiya	18612,6	15454,6	221,8	83,0	4	4
Germaniya	3185,4	7773,3	56,8	244,0	7	5
Litva	603,2	6639,1	59,1	1100,7	18	6
Koreya Respublikasi	3104,8	5892,0	52,9	189,8	8	7
Turkmaniston	1696,4	4796,1	154,4	282,7	13	8
Belarusiya	2015,3	4514,8	1192,1	224,0	10	9
Qirg'iz Respublikasi	1589,6	3987,0	92,6	250,8	14	10
Hindiston	7328,6	3882,1	388,1	53,0	5	11
Ukraina	2154,9	3291,4	404,8	152,7	9	12
Fransiya	3220,1	2735,8	319,2	85,0	6	13
Polsha	1804,5	2595,4	289,9	143,8	12	14
Tojikiston	301,9	1926,3	114,8	637,9	20	15
Eron	1048,6	1912,3	111,9	182,4	16	16
Malaziya	1861,8	1724,1	56,8	92,6	11	17
Latviya	518,0	1621,5	123,2	313,0	19	18
Italiya	1482,6	1449,5	118,2	97,8	15	19
Shveysariya	876,6	1164,3	9,5	132,8	17	20

2021- yining mos davriga nisbatan 55 davlatdan 58 davlatga ko'paydi.

NAMANGAN VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR-NING ULUSHI
(2022- yil yanvar-aprel % da)



Olti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Qozog'iston, Litva va Germaniya) jami importning 79,0 % ini tashkil qiladi, bu 179365,9 ming.AQSh dollarini tashkil etadi.

Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Turkiya va Litva tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi**
Tel.:(69)-211-72-00